



Konfutsiy va Konfutsiy ta'limoti

Sherzod Abduvaliyev

O'zbekiston Milliy Universiteti Harbiy tayyorgarlik

o'quv markazi Maxsus tayyorgarlik sikli

o'qituvchisi zaxiradagi Leytenant

Tel: +99850 100 09 64

abdulhayabduvaliyev30@gmail.com

Annotatsiya: Siz bu maqola orqali Konfutsiy va uning ta'limoti haqida bilimga ega bo'lasiz.

Konfutsiy miloddan avvalgi 551—479-yil) — Xitoy faylasufi hisoblanib u [konfutsiychilik](#) asoschisi va siyosiy arbob bo'lgan. Uning saboqlari va faylasufligi [Xitoy](#), Koreya, [Yaponiya](#) va [Vetnam](#) xalqlarining o'y-fikri va hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Konfutsiy miloddan avvalgi 551—479-yil yillarda yashab o'tgan.

Konfutsiy kambag'allashib qolgan zodagon va harbiylar oilasida tug'ilgan. 22 yoshida ta'lim berish bilan shug'ullanib, Xitoyning eng mashhur o'qituvchisi sifatida shuhrat qozongan. Konfutsiy o'zi ochgan maktabida 4 ta fan: axloq, til, siyosat va adabiyot o'qitilgan. 50 yoshida Konfutsiy siyosiy faoliyatini boshlab, Lu davlatida yuqori amaldori bo'lib xizmat qiladi. Fitnalar natijasida xizmatidan ketadi, 13 yil mobaynida Xitoyning turli o'lkalariga boradi, biroq u joylarda o'z g'oyalarini qo'llay olmagach, miloddan avvalgi 484-yilda Luga qaytib keladi. Ta'lim berishdan tashqari qadimiy Xitoyning 5 ta mumtoz asari — „Shudzin“, „Shidzin“, „Idzin“, „Yuedzin“ va „Lidzi“ni to'plash, tahrir qilish, tarqatish bilan shug'ullanadi. [Konfutsiy ta'limoti](#) uning „Lun yuy“ ya'ni „Suhbatlar va mulohazalar“ kitobida bayon etilgan. Bu kitob aslida Konfutsiyning fikrlari va suhbatlari



asosida shogirdlari va izdoshlari tomonidan yaratilgan. Konfutsiy o'zi uchun, avlodlari, yaqin shogirdlari uchun alohida ajratilgan qabristonga dafn etilgan; uning uyi [Konfutsiy ibodatxonasiga](#) aylantirilgan, bu joy ziyoratgoh bo'lib qolgan.^[1]

Xitoydagi ilm-fan taraqqiyotida Konfutsiy va uning maktabi alohida ahamiyatga ega. Uning Xitoy falsafasi tarixida tutgan o'rnini Suqrotning yunon falsafasi tarixidagi o'rnigagina qiyoslash mumkin. Uning butun dunyoda mashhur bo'lgan nomi „kun“ va „futszi“ so'zlari asosida yasalgan „Kun“ hozirgi vaqtda familiyani anglatuvchi so'z bo'lsa, „fu“ faylasuf, „szi“ o'qituvchi ma'nolarini ifodalovchi so'zlardir. Ya'ni Konfutsiy „falsafa o'qituvchisi“ degan so'zlarning familiya maqomini olgan shaklidir. Konfutsiy yashagan davrdan „To'rt asos“ va „Besh asos“ degan ulkan yozma yodgorliklar saqlanib qolgan. „Besh asos“ Konfutsiyga qadar yaratilgan „Qo'shiqlar kitobi“, „Taomillar kitobi“ („Marosimlar kitobi“), „Rivoyatlar kitobi“ va „Folbinlik kitobi“ („o'zgarishlar kitobi“) singari qismlardan iborat bo'lgan. Lekin bu kitoblarning barchasi konfutsiylik ta'limoti asosida qayta ishlangan va Konfutsiy ta'limotining mohiyatini ochishga xizmat qilib kelgan. „To'rt asos“ esa Konfutsiy „Hikmatlar“idan tashqari, „Menzi“ („Men-muallim“), „Buyuk ta'limot“ va „Oraliq haqidagi ta'limot“ singari Konfutsiy shogirdlarining hikmatli so'zlaridan tashkil topgan. Konfutsiy ta'limoti markazida „muruvvatli zot“ turadi. U hukmron tabaqaning ideal vakili bo'lib, Konfutsiy ta'limoti yordamida o'zida jamiyat farovonligini ta'minlaydigan va ma'naviy asoslarini ifodalay oladigan oliyjanob fazilatlarni shakllantirgan. Konfutsiy „Hikmatlar“i „muruvvatli zot“ning shunday yuksak insoniy fazilatlarni aks ettiradi. Aniqroq aytsak, bu zot oliy hukmdorga nisbatan chuqur ehtiromli, xalqqa esa muruvvatli bo'luvchi, butun kuch va qobiliyatini jamiyat oldidagi burchini oqlashga, milliy urf-odat va an'analarning to'la-to'kis bajarilishini ta'minlashga sarf etuvchi kishidir. Shuning uchun ham uning o'gitlari, pand-u nasihatlari Xitoyda hanuzga qadar e'zozlanib va qadrlanib keladi.



Konfutsiylik yoki **konfutsiychilik** - Xitoydagi axloqiy-siyosiy ta'limot keyinchalik eng ta'sirli 3 asosiy falsafiy-diniy oqimdan biri (daosizm va buddizm bilan birga). [Konfutsiy](#) asos solgan. Konfutsiyning ilk davomchilari — Men-szi (Mek Ke — miloddan avvalgi 371—289), Ven-szi (miloddan avvalgi 6-asr), Xan Fey-szi (miloddan avvalgi 233 yil v.e.), keyingi davrda Fan Chjen (6-asr), Xan Yuy (768—824) va boshqa

Konfutsiy ta'limotida insonparvarlik (jen), odob qoidalari (li), fazilat (de) tushunchasi muhim o'rin egallaydi. Insonparvarlik tushunchasiga ko'ra, odamlar axloqiy va ijtimoiy munosabatlarda yoshi ulug', mavqei baland kishilarni xurmat qilishlari, podshohga sadoqatli bo'lishlari kerak. Odob qoidalari tushunchasiga ko'ra, u tufayli yuksak fazilatlar shakllanadi, jamiyat rivoj topadi, adolat tantana qiladi. Burchni ado etish tufayli inson kamolotga erishadi. Uning negizida "sen o'zing nimaga erishishni istasang, unga boshqalarning erishishiga ko'maklash", "sen nimani orzu qilmasang, uni boshqalarga ravo ko'rma" kabi hayotiy tamoyillar yotadi. "Buyuk ta'limot" va "O'rtalik haqida ta'limot" degan asarlarni Konfutsiy yozgan deb taxmin qilinadi. Bu kitoblarga ko'ra, odamlarning birgalikda oqilona yashashi tartibining muhim shartini 5 ta oddiy va buyuk fazilat tashqil etadi: donolik; insonparvarlik; sadoqat; kattalarni hurmat qilish; jasorat. Bu fazilatlar o'ziga va boshqalarga xalollikni va chuqur hurmatni anglatadi. Faqat mumtoz va komil insonlargina bunday fazilatga ega bo'ladi.

Konfutsiyda ta'kidlanishicha, qonun inson manfaatlariga xizmat qilmog'i lozim. Qonun o'zgarishi bilan manfaatdorlik va manfaatsizlik tushunchalari ham boshqacha ma'no kasb etadi, inson faoliyatida tub o'zgarish ro'y beradi. O'tmishda o'rnatilgan tartibga sajda qilish yangi qonunlar ruhiga ziddir. Konfutsiyda jamiyatni boshqarishga katta e'tibor berilib, unga ko'ra, jamiyatni keragidan ortiq, oddiy qonunlar bilan to'ldirib yubormaslik zarur. Xitoyda asrlar mobaynida Konfutsiyning turli maktablari yuzaga kelgan. Ular o'rtasida keskin kurash borgan.



Konfutsiy milodiy 1 -asrda davlat ta'limotiga aylandi, 9-asrda buddizm, 11-asrda daosizm ustidan to'la g'alaba qozondi. Bunga, ayniqsa, Sun davri (960—1279)da neokonfutsiychilik rivojlanganligi tufayli erishildi

Manbalar:

1. O'zME (<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzME>). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. O'zME (<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzME>). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Konfutsiy. Xitoy falsafasi (<http://www.confucianism.ru/>) (rus.)
4. 23 tildagi Konfutsiy asarlari (<http://www.confucius.org/index.html>) (Confucius Publishing Co